



Saidova Barno Narzullayevna,
Nizomiy nomidagi TDPU "Pedagogika" kafedrası
dotsent v/b., p.f.f.d (PhD)

AVESTO DAVRIDA XOTIN-QIZLAR TA'LIMI VA TARBIYASINING VUJUDGA KELISHIGA ASOS BO'LGAN OMILLAR

Annotatsiya. Ushbu maqolada pedagogika tarixida xotin-qizlarning ta'lim-tarbiya jarayonidagi o'rni va ahamiyati haqida ilmiy asosga ega bo'lgan ma'lumotlar keltirilgan va tahlil qilingan. Bugungi kunda talabalarga o'tmishda har bir sohada faol, jasoratli ajdodlari borligini faxr va g'urur tuyg'usiga aylantirish bugungi kun pedagoglari oldida turgan eng muhim vazifadir. Shu jihatdan maqolada o'tmishdagi ayollarning jamiyatdagi mavqeyi va ta'lim-tarbiya jarayonidagi roli haqida ma'lumotlar ilmiy asoslangan holda keltirib berilgan.

Kalit so'zlar: insoniyat tamadduni, milliy qadriyatlar, tarixiy manbalar, savodli odamlarning xo'jaligi, madaniyatli turmush, adabiy va ilmiy asarlar, qabila rahbariyatidagi oqsoqollar, tamaddun, tadrijiy rivojlanish.

Аннотация. В данной статье представлены и проанализированы научно обоснованные сведения о роли и значении женщин в образовательном процессе в истории педагогики. Сегодня важнейшей задачей современных педагогов является вызвать у студентов чувство гордости за то, что у них в прошлом были деятельные и смелые предки во всех областях. В связи с этим в статье представлены научно обоснованные сведения о положении женщин в обществе и их роли в образовательном процессе в прошлом.

Ключевые слова: человеческая цивилизация, национальные ценности, исторические источники, хозяйство грамотных людей, цивилизованная жизнь, литературные и научные произведения, старейшины во главе племени.

Annotation. This article presents and analyzes scientifically based information about the role and importance of women in the educational process in the history of pedagogy. Today, it is the most important task for today's pedagogues to make students feel proud that they have active and courageous ancestors in the past in every field. In this regard, the article provides scientifically based information about the position of women in society and their role in the educational process in the past.

Key words: human civilization, national values, historical sources, the economy of literate people, civilized life, literary and scientific works, elders in the leadership of the tribe.

Kirish. Jahon tarixi sahifalarida ta'limning boshlanishi Qadimgi Sharq mamlakatlarida paydo bo'lgani haqida ma'lumotlar ko'p. Ayniqsa, eng qadimgi Sharq tarixida birinchi ta'lim muassasalari Mesopotamiya shaharlarida miloddan avvalgi 3-mingyillikda paydo bo'lgani borasida ilmiy dalillar keltirilgan. Biroq barcha tarixiy manbalar va ulardagi faktlar tarixiy yondashuv asosida o'sha davrlardagi ta'lim jarayonini savodli odamlarning xo'jaligi hamda

madaniyatli turmushini tashkil etish ehtiyojlaridan kelib chiqqani bilan bog'lab talqin etiladi. Ushbu jarayonda, ya'ni ta'limning vujudga kelishi, uning tadrijiy rivojlanishida pedagogik omillar qanday shakllangan, qanday takomillashtirilgani esa aniq ilmiy muammoga aylanmagan.

Hayot sharoitining murakkablashgani sari avval ijtimoiy, so'ng pedagogik tajribani avloddan avlodga o'tkazish vazifalari va usullari o'zgarib, tadrijiy tarzda maxsus tayinlangan shaxslar qo'liga

topshirilgan ta'limning tashkiliy shakllari o'rnatila boshlangan. Mutaxassis kadrlar tayyorlashning ixtisoslashuvi kuchaytirilgan va eng keng tarqalgan uch xil maktablar vujudga kelgan: 1) ruhoniylarni tayyorlaydigan, ibodatxonalarda tayyorlangan ruhoniylar maktabi; 2) ulamolar-amaldorlarni o'qitgan saroy maktablari; 3) bo'lg'usi jangchilar o'qigan harbiy maktab. Manbalarga ko'ra, o'qish to'lovli bo'lib, uning miqdori o'qituvchining obro'si yoki vakolatiga bog'liq bo'lgan. Eng muhimi bunday maktablarning bitiruvchilariga ijtimoiy iyerarxiyada yuqori o'rinlarni egallash imkoniyati berilgan.

Ruhoniylar maktablarida ta'lim mazmuni keng qamrovli edi. Unda yozish, hisoblash va o'qishdan tashqari qonun, astrologiya, tibbiyot va diniy fanlar o'rgatilgan. Ta'lim muddati uzoq, to'lovi qimmat bo'lgani bois faqat boy amaldorlar va quldorlar o'z farzandlarini maktablarga berishlari mumkin bo'lgan. Qizlar odatda o'qishga kam jalb qilingan. Sinfxonalarda ertalabdan kechgacha davom etgan darslarda tayoq intizomi hukm surgan. Umuman olganda, shuni ta'kidlash kerakki, ko'plab Sharq mamlakatlarida ko'rib chiqilayotgan davrda ta'lim mazmuni va o'qitish uslublari o'sha hududda hukmron bo'lgan diniy mafkurani aks ettirgan hamda dunyoviy boylar va amaldorlarning manfaatlariga xizmat qilgan. Shu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, qadimgi davrlarda o'qitish metodlari tizimlashtirilmagan, ommaviy xarakterga ega bo'lmagan holda, turli hududlarda turli usul, metod va vositalar orqali amalga oshirilgan. Bunga sabab sifatida, albatta, turmush tarzi, tabiat bilan uyg'unlik masalalarining o'sha zamonlarga xos nomutanosibligi va boshqa omillarni keltirish mumkin.

O'rta Osiyo aholisining ta'lim va tarbiya muammolari qadim zamonlardan boshlab milliy an'analar, ma'naviy asoslar va xulq-atvorning umumbashariy e'tirof etilgan me'yorlari bilan bog'liq edi. Qadimgi davrlarda erkak va ayol o'rtasidagi vazifalar taqsimlangani sari ayol astasekin alohida va muhim maqom – o'choq saqlovchisi maqomiga ega bo'ldi. Tarixiy o'lhovning o'rta va dastlabki paleolit davrining oxirida kommunaning birinchi belgilari – qabilaviy jamoalar paydo bo'ldi. Bu ayollar yuqori mavqega ega bo'lgan matriarxal tizim edi¹. Aynan shu davrda tarbiya va ta'limning dastlabki tashkiliy shakllari, ya'ni maktablarning eng qadimiy prototiplari ko'rinishida paydo bo'ldi.

¹ Гафуров Б.Г. Точикон: таърихи қадимтарин, қадим ва асри миёна. Китоби якум. — Душанбе: «Ирфон», 1998. — 704 б.

Qadimgi davrlarda O'rta Osiyo hududida yashovchi ajdodlarimizning zardushtiylik vujudga kelgan paytdan boshlab shakllangan pedagogikasi tarixida ayol erkak bilan bir xil mavqega ega bo'lgan, hatto qisman uy tutish va bolalarni tarbiyalashda ba'zi afzalliklar ular tomonga o'tgan. Tarbiya maktabi va qisman ta'lim ham ayol yetakchi bo'lgan oiladan kelib chiqqan.

Ma'lumki, "Avesto" o'z mohiyatiga ko'ra diniy asar, ammo u insoniyatda tabiatga nisbatan hurmat hissini uyg'otib, ona-zaminga tabiatning ajralmas bir bo'lagi sifatida qarashni o'rgatadi. Shu sababdan asarga nisbatan nafaqat o'tmish ajdodlarning diniy merosi sifatida qarash, balki qadim tarixi, madaniyati va tafakkur tarzini o'rganish uchun juda muhim bo'lgan bebaho, tarixiy manba sifatida qarash to'g'ri bo'ladi.

"Avesto" qadimgi ajdodlarimizning o'ziga xos qadriyat va urf-odatlarining mohiyatini teologik-falsafiy asosda aks etgan. Unda "men ezgu fikr (niyat)larni, ezgu so'zlarni va ezgu amallarni yoqtiraman. Men mazdayasna qonunlariga asoslangan targ'ibotlarni ulug'layman", degan fikrlar keltiriladi. Demak, zardushtiylikda iymonning uch tayanchi: fikrlar sofligi, so'zning sobitligi va amallarning insoniyligi ta'limotning asosini tashkil etadi. Bu qarashlar shaxs tarbiyasida muhim omil sanalgani bois "Avesto"da ta'lim, tarbiya, axloq, insonning ma'naviy kamolot darajasi maxsus o'rganilganini qayd etish lozim bo'ladi.

"Avesto"da ayol "rita sia bonu" yoki "asha bonu" deb nomlangan. Sanskrit tilidan tarjima qilingan ushbu so'zlar yorug'lik, haqiqat va sadoqatni anglatadi. "Bonu" so'zi bugungi kunda ham eng yaxshi fazilatlar bilan boshqalardan ajralib turadigan ayol ismlarining qo'shimchasi sifatida ishlatiladi. Masalan, forsiy tilida "kad" so'zi "uy", "o'choq" ma'nosini anglatadi. O'choqni muqaddas tutib, uy-ro'zg'orni mahorat bilan boshqaradigan ayol "kadbonu" deyiladi. Qadim zamonlardan buyon "bonu" so'zi nur, yorug'lik va vafo sifatida ishlatilgan. "Ona" so'zi ham sanskrit tilida alohida ma'noga ega, u "matri"ga o'xshaydi va "tarbiyachi" degan ma'noni anglatadi. "Savsari" sanskrit tilida opa-singillar ma'nosini ifoda etib, bu ham xayrixohlik va muqaddaslikni anglatadi. Ko'rinib turibdiki, ayollar va xotin-qizlarga munosabat o'zgacha nozik, mukammal bo'lgan va qadimgi davrlardan boshlab ajdodlarimiz ona, ayol tushunchalarini sadoqat va muqaddaslikning ramzi deb hisoblashgan, ularga oilada bolalarining

tarbiyachisi sifatida muhim maqom berishgan. “Avesto” zamonidagi jamiyatda oila “nmana”, oilaning eng katta ayoli “nmanapatni”, ya’ni uying bekasi maqomiga ega bo’lgan.

O’rta Osiyo hududining Pomir tog’lari va tog’oldi mintaqalaridan topilgan haykalchalar, tosh yozuvlari, yozma manbalar shaklidagi tarixiy yodgorliklar, qadimda ushbu maskanlarda ayollar jamiyatda katta mavqega egaligidan dalolat beradi. Insoniyat tarixi rivojlanishining ilk bosqichlarida ayol-ona hamisha eri va oilaning boshqa erkaklari yo’qligida, uyda o’tirib, uyda olovni saqlab turganida, bolalarni tarbiyalab, oziq-ovqat tayyorlab, mevalar yig’ib, kiyim-kechak tikib, chorva mollarini boqib, hattoki yer haydagan paytlarda O’rta Osiyo xalqlarining ta’lim tizimiga tamal toshi qo’yilgan edi. O’shanda mehnat tarbiyasi ta’limning bosh mezoni hisoblangan. Kelajakda odamlarning chorvachilik va dehqonchilik mahsulotlariga bo’lgan ehtiyojlarining intensiv o’sishi nafaqat tegishli aqliy rivojlanishni, balki ma’lum bir jismoniy rivojlanishni ham talab qilar edi².

O’rta Osiyo xalqlarining qadimgi davrlardan qolgan boy merosi deyarli butunlay xalq ijodiga asoslangan va ular mehnatsevarlik, halollik va adolatparvarlikka bag’ishlangan. Bu manzarani ayollarning eng yaxshi an’anaviy qo’shiqlar, go’daklar uchun allalar, ertak va afsonalar, kichik va katta she’rlarni avloddan avlodga o’tkazishda asosiy vositachi yoki bog’lovchi halqa bo’lganliklarida ko’rishimiz mumkin.

Ma’lumki, o’sib borayotgan bolalarda odob-axloq va vatanparvarlik tuyg’ularini tarbiyalash uchun ibratli hikoyalar hamda rivoyatlar asos bo’lib xizmat qiladi. Shu o’rinda oila, uning doirasida ayol bolalarni yoshligidan milliy urf-odatlar asosida tarbiyalab kelgan. Shunday qilib, antik davrda uydagi ta’lim bolalarning jismoniy va intellektual rivojlanish maktablarining dastlabki boshlang’ich nuqtasi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Mehnatga, jismoniy chidamlilikka, hunarmandchilikning har xil turlariga, xalq ijodi va milliy g’ururga muhabbat tuyg’ularini tarbiyalash aynan oiladan boshlanadi. Ayollar boshchiligidagi oila maktablari bolalar tarbiyasining asosiy omiliga aylantirilgan.

Qadimgi odamlarning ta’lim-tarbiyasi jarayonida axloqiy va diniy tushunchalarda ifoda

² Джалилов А.Д. Из истории положения женщин Средней Азии до и после распространения ислама. – Душанбе: «Ирфон», 1974. – 43 б.

etilgan xalqning ma’naviy qadriyatlari muhim rol o’ynagan. Aynan shu jihatlar bois zamonaviy pedagogika ilmida yozma manbalardagi bizgacha yetib kelgan milliy ta’lim an’analarini o’rganishga, ularni saqlashga va albatta, ulardan saboq olishga ko’proq e’tibor qaratish hamda unga tayanish lozimligi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Qimmatli ma’lumotlarni uzatish va saqlashning asosiy vositasi sifatida og’zaki nutqdan yozuvga bosqichma-bosqich o’tish jarayonini insonning ta’lim olish orqali qo’lga kiritgan birinchi aqliy qobiliyatlari va intellektual mehnati natijalari ifodasi deb hisoblash mumkin. O’rta Osiyo xalqlarining asarlar majmuasidagi birinchi mukammal manbasi “Avesto” kitoblari to’plami hisoblanadi. Ushbu kitobda insoniyatning boshlang’ich rivojlanish bosqichi, eng qadimiy odamlarning birinchi axloqiy va estetik qadamlari, ayniqsa, yorqin tasvirlangan. Yuqorida ta’kidlab o’tganimizdek, undagi ta’limotning zamirida har bir ezgu amalning hayotiy kuchga ega bo’lishi uchun juda ko’p pedagogik yondashuv, pedagogik omillar talqin qilingan. Buni quyida keltirilgan misollarda ko’rishimiz mumkin.

“Avesto”da axloqiy, huquqiy va diniy kodeks sifatida, birinchi navbatda, butun xalqqa murojaat qilingan: inson, avvalo, “ezgu maqsad, samimiy so’zlar va kuchli iroda”ga ega bo’lishi kerak hamda “haqiqat, aql va ta’limot” unga hamisha hamroh bo’lishi kerak.

Haqiqat, aql va ta’limot dinning asosiy shiori bo’lgani sababli qadimgi davrlarda ham ta’lim, axloqiy va estetik asoslarga alohida e’tibor berilgan, deb taxmin qilish mumkin. Zardushtiylik qonunlariga ko’ra, oila jamiyatning ma’naviy rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo’lgan. Oilaga ega bo’lganlar to’g’ri va yaxshi hayot kechirishadi, deb ishonishgan. Shuning uchun oila yaratish va bolalarni tarbiyalash muqaddas ish deb qaralgan³.

Zardushtiylik dinida bolalarni tarbiyalash muhim ahamiyatga ega edi. Avestoda yetti yoshga qadar bola, asosan, onasi bilan birga tarbiyalangan. Yetti yoshga to’lganida otasi uni maktabga berishi shart etib belgilangan edi. Unda yana shunday deyilgan: “Agar sizda voyaga yetmagan bolangiz bo’lsa, uni maktabga yuboring, chunki bilim ko’zning nuridir”⁴.

³ Ходжаева Н. Статус женщины Средней Азии в период функционирования шелкового пути //Мат.науч.-теор.конф. // Сборник докладов. – Ташкент, 2006. – 171 б.

⁴ Назаров Р. Философия образования эпохи зороастризма. БУЛЛЕТЕНЬ оф ИИСАС. Volume 14, 2011.// Авеста. Древнейшие гимны и иранские тексты /

“Avesto”da bolalarni yoshligidan tarbiyalash va o‘qitish bo‘yicha ba’zi pedagogik qoidalar o‘z aksini topgan. Masalan, “Avesto”ga ko‘ra, bola o‘sishi bilan ota-onalar uni o‘qish uchun maktabga berishga majbur edilar. Agar ular buni qilmagan bo‘lsalar, ularning qilmishlari katta gunoh qilish bilan tenglashtiriladi. Shu o‘rinda ayollarning zimmasiga yuklangan vazifa bolani tom ma’noda maktabga tayyorlash edi, ya’ni bolaning savodini chiqarishda o‘qituvchi bilan birgalikda mehnat qilishi talab qilinadi. Demak, o‘z-o‘zidan ayollar ta’limdan xabardor ekanliklarini taxmin qilsak, mantiqan xato bo‘lmaydi.

Qadimgi davrlarda o‘qituvchilarga qat’iy talablar qo‘yilgan. Ular tunda o‘qish va ertalabki darsga tayyorgarlik ko‘rishlari kerak edi. “Avesto”da biz quyidagi jumalarni o‘qiydiz: “Hey, Zaratushtra, donishmandlarning o‘qishlari va bilimlari yo‘lida tunab qoladigan o‘qituvchining o‘rnini aniqla, toki uning fikrlari muammolar bilan band bo‘lmasin va qiyomat kuni uning yuragi shodlik va quvonchga to‘lsin hamda kelajak abadiy dunyoda unga jannatiy saodat ta’minlansin”⁵.

Avesto davrida maktablarda, birinchi navbatda, o‘qish va yozish, hisoblash, geometriya, astronomiya va tibbiyot bo‘yicha birinchi ko‘nikmalar berilgan. Maktabga borishi mumkin bo‘lgan bolalar doirasi juda tor edi. Shundan kelib chiqqan holda, quyi sinf bolalari o‘zlarini ota-onalarining kasbini o‘rganish bilan cheklanganlar va kelajakda o‘z avlodlariga o‘rgatganlar. Maktablar “dabistanam” deb nomlangan va ular ibodatxonalarda joylashgan. “Dabiston” so‘zi bugun Eron va Afg‘onistonda “maktab” so‘zi ma’nosida ishlatiladi. Dabistonda qizlar o‘g‘il bolalar bilan birga o‘qiganlar. Ozarbodning o‘g‘li Zamonga bergan ko‘rsatmalarida: “Xotiningizning ta’lim olishga intilishlariga to‘sqinlik qilmang, toki keyinchalik qilgan ishingiz uchun sizni umidsizlik va qayg‘u qamrab olmasin.”⁶ Ko‘rinib turibdiki, ayollarning ta’lim olishiga nafaqat to‘siq bo‘lmagan, balki aksincha uni qo‘llab-quvvatlash tamoyili ko‘rsatma mazmunida hayotga joriy etilgan ekan.

Zardushtiylik davrida ayollar ta’limining mazmuni, avvalambor, axloqiy-estetik qadriyatlarni

va uy-ro‘zg‘or yurgizish mahoratini o‘z ichiga olgan. Qizlarga yoshligidanoq oilaning kichkina farzandlariga ta’lim berish, kattalarning nasihat va ko‘rsatmalarini tinglash, ro‘zg‘orni boshqarish, hisob-kitob, ob-havo o‘zgarishi hamda boshqa tabiiy hodisalarni hisoblash va bilish o‘rgatilgan.

Bugun jahondagi ilg‘or va zamonaviy ta’limning mazmuniga e’tibor berilsa, o‘quvchilarda hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirish vazifasi eng dolzarb masalalar qatoridan o‘rin olgan. Qadimgi davrlarda ham ta’lim, asosan, hayotda zarur bo‘ladigan bilim va ko‘nikmalarni o‘rganishga yo‘naltirilgan ekan. Masalan, chorvachilik bilan shug‘ullangan qabilalar bu yo‘nalishda barcha zarur bilimlarni o‘rganganlar va o‘rgatganlar. Shuningdek, qizlar va ayollar ip bilan ishlash, jundan ip tayyorlash, teridan kiyim tikish, qish uchun zaxira ovqat tayyorlash bo‘yicha ta’lim olganlar.

Manbalarga ko‘ra, Zaratushtra dinida qizlar muhim mavqega ega. Ular ota-onalarning istagiga ko‘ra ta’lim olishi mumkin edi. Qonunda 15 yoshgacha bo‘lgan qizlarga ta’lim berish belgilab qo‘yilgan edi. Shuningdek, qizlar uy ishlarini bilishi, ro‘zg‘or yuritishdan ogoh bo‘lishi, tozalik va tartibga hamisha rioya etishi, axloqiy va estetik qadriyatlarining asosiy tushunchalaridan ma’lumotga ega bo‘lishlari belgilangan edi.

Ushbu ko‘nikmalar bilan bir qatorda qizlarga maktablarda savodxonlik asoslari o‘rgatilsa-da, ammo bu ta’limning asosiy va zaruriy qismi emas edi. Savod mazmuni ta’lim vazifalaridan tashqariga chiqardi. Ta’limning asosiy g‘oyasi amaliy bilim va ko‘nikmalarni o‘rgatish emas, balki diniy va axloqiy tarbiya edi. Shu bilan birga, tarixiy xronikalar va ayollar haykalchalaridan iborat bo‘lgan arxeologik topilmalariga muvofiq, qadimgi Sharq ayol-qizlari o‘qish, yozish, hisoblash, rasm chizish va kashtachilik qilishlari mumkin, degan xulosani yanada mustahkam ilmiy farazga aylantirish mumkin.

Xulosa. Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, qadimgi zamonda umumiy ta’lim, jumladan, ayollar ta’limi, qizlarning ta’limdagi qamrovi, ehtimol, ommaviy bo‘lmagan, barchada bunday imkoniyatdan foydalanish sharoiti bo‘lmagan, ammo bu jarayoni umuman bo‘lmagan degan ma’noni anglatmaydi. Ayollar zimmasiga yuklanadigan barcha tarbiyaviy xarakterga ega bo‘lgan amallar aynan tizimli pedagogik munosabatlar ifodasi bo‘lsa-da, ammo tizimli o‘rganilmaganligicha qolib ketgan. Binobarin, tarixning ma’lum davrlarida Sharq, jumladan, O‘rta Osiyo ayollari savodsiz, faqat

пер. и комментарии Джаилили Дустхох (на тадж.яз). – Душанбе, 2001. – 78 б.

⁵ История таджикского народа. Том ИИ. Эпоха формирования таджикского народа. – Душанбе, Алхудо, 1999. – 791 б.

⁶ История таджикского народа. Том ИИ. Эпоха формирования таджикского народа. Душанбе, Алхудо, 1999. 794 б.

uyda o'tirganlar, degan ilmiy farazlar ilgari surilgan va o'ylaymizki ular g'arazli maqsadlar yo'lidagi uydirmalardan boshqa narsa emas edi. Ma'lumki, ta'lim va tarbiya o'z mohiyat-e'tibori bilan milliy, umuminsoniy va gumanistik mazmunga egadir. Har bir jamiyat o'z oldiga yetuk, har tomonlama kamol topgan, o'zida butun ijobiy, oliyjanob fazilatlarini birlashtirgan avlodni tarbiyalashni orzu qiladi. Bilimli, tarbiyali, ma'naviyatli inson bugungi kun va kelajak haqida fikr yuritadi, shuningdek, kelgusi hayot va turmushning ravnaqi uchun o'z hissasini qo'shishga intiladi. Shu hayotiy falsafa O'rta Osiyo xalqlarining ajdodlari uchun qadim zamonlardan boshlab dasturulamal bo'lganini aynan ilmiy ma'lumot va xulosalar isbotlaydi. Qadimdan ajdodlarimiz porloq kelajak, albatta, ta'lim va tarbiya jarayonining natijasida qo'lga kiritilishi mumkinligiga ishongan, shu maqsadda hikmat va o'gitlar yaratilgan. Ularga ko'ra, insonning qadri unga biror narsani ishonib topshirish, uni biror muhim vazifaga mas'ul qilish bilan shakllanadi. Ayol ham bashariyat tarixining turli bosqichlarida, dunyoning turli nuqtalarida va albatta, vaqt nuqtayi nazaridan turli davrlarda eng yuksak mas'uliyatga musharraf bo'lib kelgan. Yuqorida keltirilgan ilmiy asoslangan ma'lumotlarga ko'ra quyidaga xulosaga kelishimiz mumkin:

Ayolning asosiy vazifasi o'zidan keyin jismoniy va ruhiy salohiyatga ega bo'lgan sog'lom va yetuk kelajak davomchilarini dunyoga keltirishdir. Bunday mas'uliyatli vazifani ado etishi uchun

ayrim ishlardan ozod etilishi, ba'zi imtiyozlarga ega bo'lishi lozim. Aks holda, u o'z vazifasini to'la-to'kis ado etolmasligi mumkin. Bu vazifani ado etishi uchun ayol fahm-farosatli, muloyim, es-hushi joyida hamda sog'lom bo'lishi kerak.

Ayol kishi oilada ham, butun jamiyatda ham o'z o'rnini topishi uchun unga berilgan imkoniyatlardan to'la foydalanishi lozim. Chunki har bir ayol-qiz xuddi erkaklar kabi ilm olishga, salomatligini mustahkamlash yo'lida, qo'lidagi mol-mulkini ko'paytirish yo'lida harakat qilishga, shuningdek, obro' va martabasini himoya qilishga va boshqa insoniy huquqlarga ega. Bu imkoniyatlar esa ularning kamolotga erishishlarida asosiy omil vazifasini o'taydi. Qolaversa, bunday mahorat darslari o'ziga xos metod va usullarni talab etishi ham ayni haqiqat bo'lib, alohida ilmiy muammo sifatida o'rganishni taqozo etadi.

Bugungi kun pedagog va tarixchi olimlari oldidagi eng asosiy vazifalardan biri, pedagogika tarixini, ayniqsa, o'zbek pedagogikasi tarixini mukammal o'rganishlar asosida tahlil etish va yoritib berishdir. Gender pedagogika fani rivojlanmoqda, xotin-qizlar huquqini himoya qilish, ularning kamsitilishini oldini olish, ayollarning jamiyatdagi nufuzini oshirish bugungi kunning eng asosiy maqsadidir. O'tmish haqidagi ma'lumotlarni ta'lim jarayoniga olib kirish, yoshlarimizga pedagogika tarixi haqida to'liq va asosli ma'lumot berish, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash pedagoglarimiz oldida turgan eng ulug' maqsaddir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Гафуров Б.Г. Точикон: таърихи кадимтарин, кадим ва асри миёна. Китоби якум. – Душанбе: «Ирфон», 1998. – 704 б.
2. Джалилов А.Д. Из истории положения женщин Средней Азии до и после распространения ислама. – Душанбе: «Ирфон», 1974. – 43 б.
3. Ходжаева Н. Статус женщины Средней Азии в период функционирования шелкового пути //Мат. науч.-теор. конф. // Сборник докладов, Ташкент, 2006. – 171 б.
4. Назаров Р. Философия образования эпохи зороастризма. БУЛЛЕТЕНЬ оф ИИСАС. Томе 14, 2011.// Авеста. Древнейшие гимны и иранские тексты /пер. и комментарии Джалили Дустхох (на тадж.яз). – Душанбе, 2001. – 78 б.
5. История таджикского народа. Том ИИ. Эпоха формирования таджикского народа. – Душанбе, Алхудо, 1999. – 791 б.
6. Айни Б. Таърихи инкилоби Бухоро. –Душанбе, «Адиб», 1987, – 240 б.
7. Народы Средней Азии и Казахстана. Этнографические очерки. – М.: Изд-во АН СССР, Т. И, 1962. – 791 б.
8. Лившиц В.А. Согдийская эпиграфика Средней Азии и Семиречья. – СПб., 2008. – 414 б.
9. Смирнова О.И. Очерки из истории Согда. – М.: «Наука», 1970. – 288 б.
10. Брагинский И.Б. Из истории персидской и таджикской литературы. – М.: «Наука», 1972. – 524 б.